



KRIMINOLOGIYA VA JINOIY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

2026-yil 2-son

VOLUME 6 / ISSUE 2 / 2026
ISSUE DOI: [HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.CCJ.6.2](https://dx.doi.org/10.51788/TSUL.CCJ.6.2).

ISSN 2181-2179
DOI: [HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.CCJ](https://dx.doi.org/10.51788/TSUL.CCJ)



**MUASSIS:
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK
UNIVERSITETI**

“Kriminologiya va jinoiy odil sudlov” ilmiy-amaliy jurnali O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2021-yil 18-martda 1160-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Ushbu jurnal O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro‘yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko‘paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Nashr bo‘yicha mas‘ul:
O. Choriyev

Muharrirlar:
Y. Yarmolik, M. Sharifova, Sh. Beknazarova,
E. Mustafayev, K. Abduvaliyeva, E. Sharipov,
X. Yuldasheva.

Musahhih:
R. Yunusova

Texnik muharrir:
U. Sapayev
Dizayner:
D. Rajapov

Tahririyat manzili:
100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko‘chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.
Faks: (0371) 233-37-48.
Veb-sayt: www.ccj.tsul.uz
E-mail: criminologyjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1386.

Nashriyot litsenziyasi
№ 174625, 29.11.2023.

Jurnal 2026-yil 19-iyunda
bosmaxonaga topshirildi.
Qog‘oz bichimi: A4.
Shartli bosma tabog‘i: 22,5.
Adadi: 100. Buyurtma: № 70.

Bosmaxona litsenziyasi
29.11.2023 № 174626

TDYU bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko‘chasi, 37.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

TAHRIR HAY’ATI

BOSH MUHARRIR

Q. Abdurasulova – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish sho‘basi professori, yuridik fanlar doktori

Y. Kolenko – O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI

D. Bazarova – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat-protsessual huquqi sho‘basi mudiri, yuridik fanlar doktori, professor

MAS‘UL MUHARRIR

Sh. Xaydarov – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish sho‘basi mudiri o‘rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI A‘ZOLARI

M. Rustambayev – O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘i, yuridik fanlar doktori, professor

A. Otajonov – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish sho‘basi professori, yuridik fanlar doktori

O. Mahkamov – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish sho‘basi dotsent v.b., yuridik fanlar doktori

N. Salayev – O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

S. Niyozova – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish sho‘basi professori, yuridik fanlar doktori

V. Davlyatov – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti direktorining o‘rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

A. Baratov – Toshkent davlat yuridik universiteti Kriminalistika va sud ekspertizasi sho‘basi mudiri, yuridik fanlar nomzodi

D. Musayev – Bojxona institutining Umumhuquqiy fanlar kafedrasini boshlig‘i, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

I. Nikonov – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi boshqarma boshlig‘i, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori

N. Hojiyev – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish sho‘basi dotsenti v.b.

P. Xojabekov – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish sho‘basi o‘qituvchisi, yuridik fanlar nomzodi

D. Nurumov – Toshkent davlat yuridik universiteti Sud hokimiyati, advokatura va huquqni muhofaza qiluvchi organlar sho‘basi professori v.b., yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori



**УЧРЕДИТЕЛЬ:
ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

Научно-практический журнал «Криминология и уголовное правосудие» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 18 марта 2021 года с удостоверением № 1160.

Журнал создан при сотрудничестве с Правоохранительной академией Республики Узбекистан.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Ответственный за выпуск:
О. Чориев

Редакторы:
Е. Ярмолик, М. Шарифова, Ш. Бекназарова,
Э. Мустафаев, К. Абдувалиева, Э. Шарипов,
Х. Юлдашева.

Корректор:
Р. Юнусова

Технический редактор:
У. Сапаев

Дизайнер:
Д. Ражапов

Адрес редакции:
100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.

Тел.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.
Факс: (0371) 233-37-48.
Веб-сайт: www.ccj.tsul.uz
E-mail: criminologyjournal@tsul.uz

Подписной индекс: 1386.

Издательская лицензия от
29.11.2023, № 174625.

Журнал передан в типографию
18.06.2026.
Формат бумаги: А4.
Усл. п. л. 22,5. Тираж: 100 экз.
Номер заказа: 70.

Лицензия типографии от
№ 174626, 29.11.2023.

Отпечатано в типографии
Ташкентского государственного
юридического университета.
100047, г. Ташкент, ул. Сайилгох, дом 37.

© Ташкентский государственный
юридический университет

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

К. Абдурасулова – профессор сектора уголовного права, криминологии и противодействия коррупции Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

Е. Коленко – первый заместитель начальника Правоохранительной академии Республики Узбекистан

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

Д. Базарова – заведующая сектором уголовно-процессуального права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

Ш. Хайдаров – заместитель заведующего сектором уголовного права, криминологии и противодействия коррупции Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

М. Рустамбаев – начальник Университета общественной безопасности Республики Узбекистан, доктор юридических наук, профессор

А. Отажонов – профессор сектора уголовного права, криминологии и противодействия коррупции Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

О. Махкамов – и. о. доцента сектора уголовного права, криминологии и противодействия коррупции Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

Н. Салаев – проректор Академии правосудия Республики Узбекистан, доктор юридических наук, профессор

С. Ниёзова – профессор сектора уголовного права, криминологии и противодействия коррупции Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

В. Давлятов – заместитель директора Института парламентских исследований при Законодательной палате Олий Мажлиса Республики Узбекистан, доктор юридических наук, профессор

А. Баратов – заведующий сектором криминалистики и судебной экспертизы Ташкентского государственного юридического университета, кандидат юридических наук

Д. Мусаев – начальник кафедры общеправовых дисциплин Таможенного института, доктор философии по юридическим наукам, доцент

И. Никонов – начальник управления Администрации Президента Республики Узбекистан, доктор философии по юридическим наукам

Н. Хожиев – и. о. доцента сектора уголовного права, криминологии и противодействия коррупции Ташкентского государственного юридического университета

П. Хожабеков – преподаватель сектора уголовного права, криминологии и противодействия коррупции Ташкентского государственного юридического университета, кандидат юридических наук

Д. Нурумов – и. о. профессора сектора судебной власти, адвокатуры и правоохранительных органов Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам

**FOUNDER:
TASHKENT STATE UNIVERSITY OF LAW**

The scientific-practical journal "Criminology and Criminal Justice" was registered by the Press and Information Agency of Uzbekistan on March 18, 2021, with certificate No. 1160.

This journal was founded in cooperation with the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan.

The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan.

Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of materials of the journal are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Publication Officer:
O. Choriev

Editors:
E. Yarmolik, M. Sharifova, Sh. Beknazarova,
E. Mustafaev, K. Abduvaliyeva, E. Sharipov,
Kh. Yuldasheva.

Proofreader:
R. Yunusova

Technical editor:
U. Sapaev

Designer:
D. Rajapov

Editorial office address:
100047. Tashkent city,
Sayilgoh street, 35.

Phone: (0371) 233-66-36,
233-41-09.

Fax: (0371) 233-37-48.

Website: www.ccj.tsul.uz

E-mail: criminologyjournal@tsul.uz

Subscription index: 1386.

Publishing license
№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the Printing house on 18.06.2026.
Paper size: A4. Cond.p.f: 22,5.
Units: 100. Order: № 70.

Printing house license
№ 174626, 29.11.2023.

Published in the Printing house of Tashkent State University of Law.
100047. Tashkent city, Sayilgoh street, 37.

© Tashkent State University of Law

EDITORIAL BOARD

EDITOR-IN-CHIEF

Q. Abdurasulova – Professor of the Department of Criminal Law, Criminology and Anti-Corruption of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

Y. Kolenko – First Deputy Head of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF

D. Bazarova – Head of the Department of Criminal Procedural Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

EXECUTIVE EDITOR

Sh. Khaydarov – Deputy Head of the Department of Criminal Law, Criminology and Anti-Corruption of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD

M. Rustambayev – Head of the University of Public Security of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor

A. Otajonov – Professor of the Department of Criminal Law, Criminology and Anti-Corruption of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

O. Mahkamov – Acting Associate Professor of the Department of Criminal Law, Criminology and Anti-Corruption of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

N. Salaev – Deputy Rector of the Academy of Justice of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor

S. Niyozova – Professor of the Department of Criminal Law, Criminology and Anti-Corruption of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

V. Davlyatov – Deputy Director of the Institute of Parliamentary Research under the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor

A. Baratov – Head of the Department of Criminalistics and Forensic Examination of Tashkent State University of Law, Candidate of Legal Sciences

D. Musaev – Head of the Department of General Legal Sciences of the Customs Institute, Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Associate Professor

I. Nikonov – Head of a Department of the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

N. Hojiyev – Acting Associate Professor of the Department of Criminal Law, Criminology and Anti-Corruption of Tashkent State University of Law

P. Khojabekov – Lecturer of the Department of Criminal Law, Criminology and Anti-Corruption of Tashkent State University of Law, Candidate of Legal Sciences

D. Nurumov – Acting Professor of the Department of Judiciary, Advocacy and Law Enforcement Agencies of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law



MUNDARIJA

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

Hakimov Komil Baxtiyarovich

GIYOHVANDLIK VOSITALARI YOKI ULARNING ANALOGLARI BILAN
QONUNGA XILOF RAVISHDA MUOMALA QILGANLIK UCHUN JINOIY
JAVOBGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI11

Abzalova Xurshida Mirziyotovna

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT HUQUQIDA EVTANAZIYA:
IJTIMOIY-HUQUQIY, AXLOQIY VA JINOYAT-HUQUQIY JIHATLAR21

Xudaykulov Feruzbek Xurramovich

JINOYAT HUQUQIDA SABABIY BOG'LANISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI30

Fazilov Farxod Maratovich

PUL MABLAG'LARINI LEGALLASHTIRISH (YUVISH) JINOYATI SUBYEKTIV
BELGILARINING JINOYAT-HUQUQIY TAHLILI44

Karaketova Dilnoza Yuldashevna

YURIDIK SHAXSLAR JINOYAT SUBYEKTI SIFATIDA57

Matviyenko Irina Aleksandrovna, AllahRakha Naim

O'ZBEKISTONDA KIBERTA'QIBNING HUQUQIY KO'RINMASLIGI:
SUD QARORLARINI TAHLIL QILISH69

Jumaniyozova Zarnigor Maxammadi qizi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT KODEKSIDA ODAM SAVDOSI UCHUN
JAVOBGARLIK EVOLYUTSIYASI81

Utayev Xusniddin Xurramovich

RAQAMLI FIRIBGARLIKDA QASD, MOTIV VA JINOYAT SUBYEKTINING
JINOYAT-HUQUQIY TAVSIFI92

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA SUD EKSPERTIZASI

Mamadaliyev Umid Yo'ldashevich

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT PROTSESSIDA EKSTRADITSIYA
INSTITUTINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH VA AMALGA OSHIRISHNING
ZAMONAVIY MUAMMOLARI101

Karimov Abdumalik Abdumutal o'g'li

YOSHLAR ORASIDA EKSTREMIZM BILAN BOG'LIQ JINOYATLARGA
QARSHI KURASHISHNING KRIMINALISTIK USULLARINI RIVOJLANTIRISH
BO'YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI110

Fatullayev Shodmonbek Madatovich

JINOYAT ISHIDA EKSPERTIZA TAYINLASH TARTIBI VA UNGA QO'YILADIGAN

PROTSESSUAL TALABLAR 119

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

Musayev Djamaliddin Kamalovich

XALQARO HAMKORLIK GIYOHVANDLIK VOSITALARINING NOQONUNIY

AYLANISHIGA QARSHI KURASHISH ASOSI SIFATIDA 133

12.00.15 – KRIMINOLOGIYA

Abdurasulova Kumrinisa Raimkulovna, Davranov Xusniddin Baxranovich

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINING KORRUPSIYAVIY JINOYATLAR

SODIR ETISH SABABLARI VA ULARGA IMKON BERGAN SHART-SHAROITLAR 144

Niyozova Salomat Saparovna

O'Z JONIGA QASD QILISHNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA UNGA IMKON

BERGAN SHART-SHAROITLARIGA DOIR ILMIY YONDASHUVLAR 156

Tojiyev Jo'rabek Muxtorovich

JINOYAT PROTSESSIDA VOYAGA YETMAGANLAR ISHTIROKIDA PEDAGOG VA

PSIXOLOGNING PROTSESSUAL MAQOMI HAMDA FUNKSIYALARI 170

Nasriyeva Dilnoza Narzulloyevna

AYOLLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN EKSTREMIZM BILAN BOG'LIQ

JINOYATLAR TUSHUNCHASI, UNING IJTIMOYIY XAVFLILIGI 182



СОДЕРЖАНИЕ

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

Хакимов Комил Бахтиярович

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УГОЛОВНОЙ
ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА НЕЗАКОННЫЙ ОБОРОТ НАРКОТИЧЕСКИХ
СРЕДСТВ ИЛИ ИХ АНАЛОГОВ11

Абзалова Хуршида Мирзиятовна

ЭВТАНАЗИЯ В УГОЛОВНОМ ПРАВЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН:
СОЦИАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ, НРАВСТВЕННЫЕ И УГОЛОВНО-ПРАВОВЫЕ
АСПЕКТЫ21

Худайкулов Ферузбек Хуррамович

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРИЧИННОЙ СВЯЗИ
В УГОЛОВНОМ ПРАВЕ30

Фазилов Фарход Маратович

УГОЛОВНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ СУБЪЕКТИВНЫХ ПРИЗНАКОВ
ПРЕСТУПЛЕНИЯ ЛЕГАЛИЗАЦИИ (ОТМЫВАНИЯ) ДЕНЕЖНЫХ СРЕДСТВ44

Каракетова Дилноза Юлдашевна

ЮРИДИЧЕСКИЕ ЛИЦА КАК СУБЪЕКТЫ ПРЕСТУПЛЕНИЯ57

Матвиенко Ирина Александровна, АллахРакха Наим

ПРАВОВАЯ НЕВИДИМОСТЬ КИБЕРПРЕСЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ:
АНАЛИЗ СУДЕБНЫХ РЕШЕНИЙ69

Жуманиязова Зарнигор Махаммади кизи

ЭВОЛЮЦИЯ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА ТОРГОВЛЮ ЛЮДЬМИ
В УГОЛОВНОМ КОДЕКСЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН81

Утаев Хусниддин Хуррамович

УГОЛОВНО-ПРАВОВАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА УМЫСЛА, МОТИВА И
СУБЪЕКТА ПРЕСТУПЛЕНИЯ ПРИ ЦИФРОВОМ МОШЕННИЧЕСТВЕ92

12.00.09 – УГОЛОВНЫЙ ПРОЦЕСС. КРИМИНАЛИСТИКА, ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКНОЕ ПРАВО И СУДЕБНАЯ ЭКСПЕРТИЗА

Мамадалиев Умид Юлдашевич

СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ И
РЕАЛИЗАЦИИ ИНСТИТУТА ЭКСТРАДИЦИИ В УГОЛОВНОМ
ПРОЦЕССЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН 101

Каримов Абдумалик Абдумутал угли

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ КРИМИНАЛИСТИЧЕСКИХ МЕТОДОВ
ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ ПРЕСТУПЛЕНИЯМ ЭКСТРЕМИСТСКОЙ
НАПРАВЛЕННОСТИ СРЕДИ МОЛОДЁЖИ

110

Фатуллаев Шодмонбек Мадатович

ПОРЯДОК НАЗНАЧЕНИЯ ЭКСПЕРТИЗЫ ПО УГОЛОВНОМУ ДЕЛУ И
ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ ТРЕБОВАНИЯ, ПРЕДЪЯВЛЯЕМЫЕ К НЕЙ

119

12.00.10 – МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО

Мусаев Джамалиддин Камалович

МЕЖДУНАРОДНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО КАК ОСНОВА ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ
НЕЗАКОННОМУ ОБОРОТУ НАРКОТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ

133

12.00.15 – КРИМИНОЛОГИЯ

Абдурасулова Кумриниса Раимкуловна, Давранов Хусниддин Бахранович

ПРИЧИНЫ СОВЕРШЕНИЯ КОРРУПЦИОННЫХ ПРЕСТУПЛЕНИЙ
СОТРУДНИКАМИ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ И СПОСОБСТВУЮЩИЕ
ИМ УСЛОВИЯ

144

Ниёзова Саломат Сапаровна

НАУЧНЫЕ ПОДХОДЫ К ПРИЧИНАМ СУИЦИДА И УСЛОВИЯМ,
СПОСОБСТВУЮЩИМ ЕГО СОВЕРШЕНИЮ

156

Тожиев Журабек Мухторович

ПРОЦЕССУАЛЬНЫЙ СТАТУС И ФУНКЦИИ ПЕДАГОГА И ПСИХОЛОГА
В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ С УЧАСТИЕМ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ

170

Насриева Дилноза Нарзуллоевна

ПОНЯТИЕ ПРЕСТУПЛЕНИЙ ЭКСТРЕМИСТСКОЙ НАПРАВЛЕННОСТИ,
СОВЕРШАЕМЫХ ЖЕНЩИНАМИ, И ИХ ОБЩЕСТВЕННАЯ ОПАСНОСТЬ

182



CONTENTS

12.00.08 – CRIMINAL LAW. CRIMINAL-EXECUTIVE LAW

Hakimov Komil Bakhtiyarovich

SOME ISSUES OF IMPROVING CRIMINAL LIABILITY FOR THE ILLICIT
TRAFFICKING OF NARCOTIC DRUGS OR THEIR ANALOGUES11

Abzalova Khurshida Mirziyotovna

EUTHANASIA IN THE CRIMINAL LAW OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN:
SOCIO-LEGAL, MORAL AND CRIMINAL-LAW ASPECTS21

Khudaykulov Feruzbek Khurramovich

THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECTS OF CAUSABILITY IN CRIMINAL LAW30

Fazilov Farkhod Maratovich

CRIMINAL-LEGAL ANALYSIS OF SUBJECTIVE CHARACTERISTICS
OF THE CRIME OF LAUNCHING (MONEY LAUNDERING)44

Karaketova Dilnoza Yuldashevna

LEGAL ENTITIES AS SUBJECTS OF CRIME57

Matvienko Irina Aleksandrovna, AllahRakha Naeem

THE LEGAL INVISIBILITY OF CYBERSTALKING IN UZBEKISTAN:
AN ANALYSIS OF JUDICIAL DECISIONS69

Jumaniyozova Zarnigor Makhmadi kizi

EVOLUTION OF LIABILITY FOR HUMAN TRAFFICKING IN THE CRIMINAL
CODE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN81

Utaev Husniddin Khurramovich

CRIMINAL LAW CHARACTERISTICS OF INTENT, MOTIVE,
AND THE OFFENDER IN DIGITAL FRAUD92

12.00.09 – CRIMINAL PROCEEDINGS. FORENSICS, INVESTIGATIVE LAW AND FORENSIC EXPERTISE

Mamadaliev Umid Yuldashevich

MODERN ISSUES OF LEGAL REGULATION AND IMPLEMENTATION
OF THE EXTRADITION INSTITUTION IN THE CRIMINAL PROCESS
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN 101

Karimov Abdumalik Abdumutal ugli

EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES IN THE DEVELOPMENT
OF CRIMINALISTIC METHODS OF COMBATING CRIMES RELATED
TO EXTREMISM AMONG YOUNG PEOPLE 110

Fatullaev Shodmonbek Madatovich

PROCEDURE FOR APPOINTING FORENSIC EXAMINATION IN CRIMINAL PROCEEDINGS AND PROCEDURAL REQUIREMENTS	119
--	-----

12.00.10 – INTERNATIONAL LAW

Musaev Djamaliddin Kamalovich

INTERNATIONAL COOPERATION AS THE FOUNDATION FOR COMBATING ILLICIT DRUG TRAFFICKING	133
---	-----

12.00.15 – CRIMINOLOGY

Abdurasulova Kumrinisa Raimkulovna, Davranov Khusniddin Bakhranovich

REASONS FOR THE COMMISSION OF CORRUPTION CRIMES BY EMPLOYEES OF INTERNAL AFFAIRS BODIES AND THE CONDITIONS THAT ENABLED THEM	144
---	-----

Niyozova Salomat Saparovna

SCIENTIFIC APPROACHES TO THE CAUSES OF SUICIDE AND THE CONDITIONS CONTRIBUTING TO ITS COMMISSION	156
---	-----

Tojiev Jurabek Mukhtorovich

PROCEDURAL STATUS AND FUNCTIONS OF A PEDAGOGUE AND A PSYCHOLOGIST IN CRIMINAL PROCEEDINGS INVOLVING MINORS	170
---	-----

Nasrieva Dilnoza Narzullaevna

THE CONCEPT OF CRIMES RELATED TO EXTREMISM COMMITTED BY WOMEN, ITS SOCIAL DANGER	182
---	-----



Kelib tushgan / Получено / Received: 13.04.2026
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 25.05.2026
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 18.06.2026

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.ccj.6.2./URYJ1936>

UDC: 340.6(045)(575.1)

JINOYAT ISHIDA EKSPERTIZA TAYINLASH TARTIBI VA UNGA QO'YILADIGAN PROTSESSUAL TALABLAR

Fatullayev Shodmonbek Madatovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi

ORCID: <https://orcid.org/0009-0000-5784-5723>

e-mail: shodmonbek080@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada jinoyat protsessida ekspertiza tayinlash tartibi, uning huquqiy asoslari hamda protsessual talablar kompleks tahlil qilingan. Xususan, ekspertiza tayinlashning umumiy, maxsus va protsessual asoslari, uni amalga oshirish bosqichlari, ekspert oldiga qo'yiladigan savollarga nisbatan talablar, shuningdek, tergov va sud bosqichlarida ekspertiza tayinlashning o'ziga xos jihatlari yoritib berilgan. Amaliyotda uchraydigan muammolar, jumladan, asossiz ekspertiza tayinlash, protsessual kamchiliklar, muddatlar bilan bog'liq noaniqliklar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ilgari surilgan. Shuningdek, ekspertiza tayinlash institutini takomillashtirish, jumladan, advokat vakolatlarini kengaytirish hamda ekspertizani elektron tizim orqali tashkil etish (E-expert) zarurati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: sud ekspertizasi, ekspertiza tayinlash, protsessual tartib, ekspert xulosasi, dalillar, maxsus bilimlar, tergov, sud muhokamasi, ekspertiza muddati, elektron ekspertiza

ПОРЯДОК НАЗНАЧЕНИЯ ЭКСПЕРТИЗЫ ПО УГОЛОВНОМУ ДЕЛУ И ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ ТРЕБОВАНИЯ, ПРЕДЪЯВЛЯЕМЫЕ К НЕЙ

Фатуллаев Шодмонбек Мадатович,

самостоятельный соискатель Ташкентского
государственного юридического университета

Аннотация. В настоящей статье комплексно проанализированы порядок назначения экспертизы в уголовном процессе, её правовые основы и процессуальные требования. В частности, раскрыты общие, специальные и процессуальные основания назначения экспертизы, этапы её проведения, требования, предъявляемые к вопросам, поставленным перед экспертом, а также особенности назначения экспертизы на стадиях предварительного расследования и судебного разбирательства.

Проанализированы проблемы, встречающиеся в правоприменительной практике, в том числе случаи необоснованного назначения экспертизы, процессуальные недостатки и неопределённости, связанные со сроками её проведения. На этой основе выдвинуты научно обоснованные предложения по устранению выявленных проблем. Кроме того, обоснована необходимость совершенствования института назначения экспертизы, в частности расширения полномочий адвоката и внедрения электронной системы организации экспертных исследований (E-expert).

Ключевые слова: судебная экспертиза, назначение экспертизы, процессуальный порядок, заключение эксперта, доказательства, специальные знания, расследование, судебное разбирательство, срок проведения экспертизы, электронная экспертиза

PROCEDURE FOR APPOINTING FORENSIC EXAMINATION IN CRIMINAL PROCEEDINGS AND PROCEDURAL REQUIREMENTS

Fatullaev Shodmonbek Madatovich,
Independent Researcher at Tashkent State University of Law

Abstract. *This article provides a comprehensive analysis of the procedure for appointing an expert examination in criminal proceedings, its legal foundations, and procedural requirements. In particular, the general, special and procedural grounds for appointing an expert examination, the stages of its implementation, the requirements for the questions posed to the expert, as well as the peculiarities of appointing an expert examination at the stages of investigation and trial are highlighted. Problems encountered in practice, including the appointment of unjustified expert examinations, procedural shortcomings, and uncertainties related to deadlines, were analyzed, and scientifically grounded proposals for their elimination were put forward. The necessity of improving the institute for appointing expert examinations, including expanding the powers of lawyers and organizing expert examinations through an electronic system (E-expert), is also substantiated.*

Keywords: *forensic examination, appointment of expertise, procedural rules, expert opinion, evidence, special knowledge, investigation, trial, time limits, electronic expertise*

Kirish

Hozirgi kunda jinoyat protsessida haqiqatni aniqlash, adolatli sudlovni ta'minlash hamda isbotlash jarayonining samaradorligini oshirishda sud ekspertizasi muhim o'rin tutadi. Jinoyat ishlarini tergov qilish va ko'rib chiqish jarayonida yuzaga keladigan ko'plab murakkab holatlarni aniqlash, ularni to'g'ri baholash va ishonchli dalillar tizimini shakllantirish ko'p jihatdan maxsus bilimlardan foydalanishga bog'liq. Shu bois ekspertiza instituti jinoyat protsessining ajralmas qismi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Fan, texnika, san'at va kasb-hunar sohalarining jadal rivojlanishi jinoyatlarni sodir etish usullarining murakkablashuviga olib kelmoqda. Bu esa, o'z navbatida, jinoyat ishlarini tergov qilishda maxsus bilimlarga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytiradi. Mazkur ehtiyojni qondirishning asosiy vositalaridan biri sifatida ekspertiza tayinlash va o'tkazish instituti namoyon bo'ladi. Ayniqsa, ayrim holatlarda qonunchilik ekspertiza o'tkazishni majburiy tartibda belgilagan bo'lib, bu uning jinoyat protsessidagi o'rnini yanada mustahkamlaydi.



Shu bilan birga, ekspertiza tayinlash jarayoni faqatgina maxsus bilimlarni jalb etish bilan cheklanib qolmay, balki qat'iy protsessual tartib va talablar asosida amalga oshirilishi lozim bo'lgan muhim protsessual harakat hisoblanadi. Ekspertiza tayinlashda yo'l qo'yilgan xatoliklar, asossiz yoki noo'rin tayinlash, savollarning noto'g'ri shakllantirilishi, obyektlarning yetarli darajada tayyorlanmaganligi kabi omillar ekspertiza natijalarining ishonchliligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, hatto jinoyat ishining to'g'ri hal etilishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, ekspertiza tayinlash bosqichida protsessual kamchiliklar, muddatlarning aniq belgilanmaganligi, ayrim hollarda esa ekspertizaga ehtiyoj bo'lmagan vaziyatlarda ham uni tayinlash holatlari uchramoqda. Bu esa tergov va sud muhokamasi muddatlarining asossiz cho'zilishiga, davlat resurslarining samarasiz sarflanishiga hamda dalillarni to'plash jarayonida muammolar yuzaga kelishiga olib kelmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi jinoyat ishida ekspertiza tayinlash tartibi va unga qo'yiladigan protsessual talablarni kompleks tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Shu bilan birga, ekspertiza tayinlash institutini takomillashtirish, xususan, protsessual mexanizmlarni aniqlashtirish, vakolatli subyektlar doirasini kengaytirish hamda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish zarurati asoslab beriladi.

Asosiy qism

"Ekspertiza muayyan shart va asoslarga ko'ra amalga oshiriladigan protsessual harakat bo'lib, uning o'ziga xosligi jinoyat ishi yuzasidan fan, texnika, san'at va kasb-hunar sohasiga oid maxsus bilimni qo'llab, tadqiqot o'tkazish orqali xulosa chiqarish zaruriyatidan yuzaga keladi. Tergovchi, prokuror, sud ekspertiza tayinlash jarayonida ekspertiza o'tkazishning muayyan sabablarini, ekspertiza predmetini, obyektni, ekspertiza bajarishni kimga topshirishini, uni o'tkazish vaqti va joyini belgilaydi" (Otaxo'jayev, 2011).

Ekspertiza tayinlash va o'tkazish tartibi JPKda alohida normalar bilan tartibga solingan. Ushbu normalar mazmunini tahlil etish asosida ekspertizani shartli ravishda dastlabki tergov va sud bosqichlarida o'tkaziladigan ekspertizalarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq.

Dastlabki tergovda ekspertiza tayinlash jinoyat-protsessual qonunida belgilangan ma'lum bir asos va shartlarga rioya etgan holda o'tkaziladigan protsessual harakatdir. Xususan, JPK 172-moddasi mazmunidan ekspertiza tayinlash uchun asoslar sifatida ish uchun ahamiyatli holatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni fan, texnika, san'at yoki kasb sohasi bo'yicha bilimi bo'lgan shaxs o'tkazadigan maxsus tekshirish orqali olish mumkin bo'lgan holatlar anglashiladi.

Umumiy jihatdan ekspertiza uch tarkibiy qismdan tashkil topadi: 1) ekspertiza tayinlash; 2) ekspertiza o'tkazish; 3) ekspertiza xulosasini baholash.

V.A. Nazarov esa ekspertiza tayinlash va o'tkazishning quyidagi bosqichlarini ko'rsatadi: 1) ekspertning faoliyati; 2) sudyaning faoliyati; 3) boshqa jinoyat protsessi ishtirokchisining faoliyati (Nazarov, 2003). Mazkur bosqichlar orasida ekspertiza tayinlash alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu bosqich o'ziga xos protsessual tartib va harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tanlashni talab etadi.

Ekspertiza tayinlash jarayonida tergov organi (sud) tomonidan quyidagi harakatlar amalga oshirilishi talab qilinadi: faktik va yuridik asoslarni aniqlash; jinoyat ishi uchun muhim hisoblangan ma'lumotlar va yuborilgan namunalarni tadqiqot uchun tayyorlash; ekspertizani o'tkazadigan ekspertiza muassasasi yoki ekspertni tanlash (shu holatda, ekspert vakolat doirasi va shaxsiy imkoniyatlarini va ko'nikmalarini aniqlash);

JPK 172-moddasiga muvofiq, ekspertiza tayinlash va ekspertizaga berilishi talab qilingan savollarni qaror yoki ajrimda shakllantirish; jinoyat protsessi ishtirokchilari tomonidan ekspertiza o'tkazish tartibi bo'yicha berilgan iltimosnomalarni ko'rib chiqish. Ekspertiza tayinlash quyidagi jihatlar bilan tavsiflanadi: ekspertiza faqatgina tadqiqot uchun yetarli obyekt va ma'lumotlar yig'ilgandagina amalga oshiriladi; ekspertiza tayinlash va o'tkazish shart bo'lgan holatlarda tergovchi va sud mazkur tergov harakatini o'tkazishi talab qilinadi (ular ushbu harakatdan voz kecha olmaydilar).

Ekspertiza tayinlash juda muhim jarayon bo'lib, ushbu bosqichda ekspertlarni to'g'ri tanlash, tegishli materiallarni tayyorlab qo'yish, taktik tavsiyalarga rioya qilish kabi tizimni shakllantirish tadqiqotni o'z vaqtida sifatli o'tkazish imkoniyatini beradi (Sankov, 2016).

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, birgina X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markaziga sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar (HMQO) tomonidan 2012-yilda – 26 188 ta; 2013-yilda – 26 147 ta; 2014-yilda – 26 810 ta; 2015-yilda – 29 806 ta; 2016-yilda – 32 430 ta; 2017-yilda – 34 859 ta ekspertiza tayinlangan.

Ekspertiza tayinlash bosqichi muhim bo'lishiga qaramay HMQOlar hamda sudlar tomonidan yo'l qo'yilgan xatoliklar sababli ko'plab murojaatlar ijrosiz qaytarilgan. Masalan, 2012-yilda – 1 927 ta; 2013-yilda – 2 066 ta; 2014-yilda – 2 036 ta; 2015-yilda – 2 369 ta; 2016-yilda – 3 006 ta hamda 2017-yilda – 3 676 ta murojaat ijrosiz qaytarilgan (Republic Forensic Science Center named after H. Sulaimanova [RFSC], 2017).

A.P. Rijakov ekspertiza tayinlash deganda, tor ma'noda ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qaror chiqarilishi, keng ma'noda ekspertiza tayinlashga qaror qabul qilish va uni rasmiylashtirishni tushunadi (Rizhakov, 2017).

Ekspertiza tayinlash asosan ishning xususiyatini aniqlash, ekspertiza sohasini va ekspertlarni tanlash, ekspertizaga materiallarni tayyorlash hamda qaror tuzish ishlari bilan bog'liq bo'ladi (Inamov, 2009, p. 177).

Ekspertiza imkoniyatlaridan unumli va to'g'ri foydalanish lozim, binobarin, noo'rin ekspertiza tayinlash oqibatida jinoyat ishi bo'yicha tergov va sud muhokamasi muddatlari asossiz uzaytirilishi, davlat ekspertiza muassasalarining moddiy-texnik resurslari va ekspertlarning harakatlari zoye ketishi mumkin (Dildin, 2002, p. 7).

Shuningdek, amaliyotda ayrim hollarda tergovchi jinoyat ishi bo'yicha barcha tergov harakatlari bajarilganini prokurorga ko'rsatish uchun, real ehtiyoj bo'lmasa ham, ekspertiza tayinlashga urinadi.

Ushbu yo'nalishda o'ziga xos fikrlarni V.A. Nazarov va V.V. Bichkov bergan bo'lib, ularning fikricha, boshqa dalillarni to'plash usullari orqali aniq ma'lumot olinishi mumkin bo'lganda ekspertiza tayinlamaslik lozim (Nazarov, 2003b, p. 14; Bychkov, 2014, p. 4).

Y.V. Komissarova: "Ekspertlarni ayrim holatda ehtiyoj sezilmagan ishlar bilan band qilmaslik zarur", – deb yozadi (Komissarova, 2013, p. 15).

Ekspertiza tayinlash vakolatiga ega bo'lgan shaxslar jumlasiga JPKning 183-moddasi ikkinchi qismiga ko'ra, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud kiradi. "Sud ekspertiza to'g'risida"gi Qonunning 17-moddasiga ko'ra, sud ekspertizasini o'tkazish asoslari sifatida tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining, surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning yoki sudyaning qarori ko'rsatilgan. Ekspertizani tayinlashni dastlabki tergovning keyingi bosqichlariga qoldirish maqsadga muvofiq emas, chunki bu tergov muddatini uzaytirishga yoki daliliy ashyoning o'z xususiyatini yo'qotishiga olib kelishi



mumkin. Shundan kelib chiqib qonunchiligimiz tergovga qadar tekshiruv organlarining ham ekspertiza tayinlashi mumkinligi to'g'risidagi jumlani qo'shib ketgan.

JPKning 172-moddasiga muvofiq, agar ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlar fan, texnika, san'at yoki muayyan kasbiy bilimlarga ega shaxs tomonidan o'tkaziladigan maxsus tekshiruv orqali aniqlanishi zarur bo'lsa, bunday hollarda ekspertiza tayinlanadi. Mazkur qoidaga asoslanib aytish mumkinki, jinoyat ishi uchun muhim bo'lgan ma'lumotlar deganda, qonuniy manbalardan olingan, jinoyat hodisasi to'g'risida axborot beruvchi va ish bo'yicha dalil sifatida foydalanilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar nazarda tutiladi. Shu bilan birga, ekspertiza tayinlash va uni o'tkazish jarayonida qo'llanilgan obyektlar, ularni tekshirish vositalari hamda usullari qonun hujjatlarida taqiqlanmagan, ilmiy jihatdan asoslangan bo'lishi hamda ular haqidagi muhim ma'lumotlar ekspert xulosasida yetarli darajada aks ettirilishi lozim.

JPKning 173-moddasida aks ettirilgan ekspertiza tayinlashning shartligi, uning huquqiy ahamiyati bilan bog'liq hisoblanadi, ya'ni sanab o'tilgan holatlar bo'yicha ekspertiza tayinlanmasligi JPKning 485-moddasiga ko'ra, sud tergovining to'liq emasligi yoki bir yoqlama olib borilganligiga sabab bo'lib, natijada hukmni bekor qilish yoki o'zgartirish asoslari yuzaga keladi.

Ekspertizani tayinlashni nazariy jihatdan uchga bo'lish maqsadga muvofiqdir: umumiy asoslar – dalil ahamiyatiga ega bo'lgan ma'lumotlarni olish uchun maxsus bilimlarni qo'llash zaruriyati; maxsus huquqiy asoslar – faqat ekspertiza orqali aniqlanishi ilmiy jihatdan asoslangan holatlar (JPK 173-moddasi); protsessual asos – vakolatli davlat organining uni tayinlash haqidagi qarori hisoblanadi (Boltayev, 2016, p. 27).

Ekspertiza tayinlash bir necha bosqichlardan iborat bo'lib, ular ekspertizaning protsessual jihatdan to'g'ri o'tkazilishini kafolatlaydi.

A.P. Rijakovning fikricha, ekspertiza tayinlash quyidagilarni o'z ichiga oladi: 1) vakolatli mansabdor shaxs tomonidan sud ekspertizasini tayinlashga qaror qilish; 2) sud ekspertizasini tayinlash to'g'risida qaror qabul qilish; 3) gumon qilinuvchi, ayblanuvchini statsionar tekshirish ehtiyoji sezilganda, ularni tibbiy (psixiatriya) statsionarga joylashtirish; 4) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchini ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qaror bilan tanishtirish; 5) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchini ekspertizaga oid huquqlari bilan tanishtirish; 6) qaror bilan tanishtirilganligi haqida bayonnoma tuzish; 7) ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qarorga o'zgartirish kiritish yuzasidan iltimos qilish; 8) ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qarorni va namunalarni ekspertiza muassasasi rahbariga yuborish; 9) ekspertiza muassasasi rahbariga tegishli ekspertga ishni biriktirish yuzasidan topshiriq berish; 10) ekspertga uning huquq va majburiyatlarini va javobgarligini tushuntirish (Rizhakov, 2007, p. 15).

Olim tomonidan ekspertiza tayinlash tartibiga doir bildirilgan qarashlar asosan ijobiy baholanishiga qaramay, ayrim jihatlarda munozarali hisoblanadi. Jumladan, u tergovchi tomonidan ekspertiza muassasasi rahbariga ekspertga ishni topshirish hamda ekspertning huquq, majburiyat va javobgarligini tushuntirish bo'yicha topshiriq berilishi lozimligi haqidagi fikrni ilgari suradi. Biroq amaldagi tartibga ko'ra, davlat sud-ekspertiza muassasasida ekspertiza tayinlanganda, muassasa rahbari ekspertni mustaqil ravishda belgilaydi hamda uning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini shaxsan o'zi tushuntiradi. Shuningdek, mazkur yondashuvda ekspertiza tayinlash jarayonida ekspertiza muddatlarini aniqlash hamda ayrim vaziyatlarda ekspertizani vaqtincha to'xtatish masalalariga yetarlicha e'tibor qaratilmagan.

Demak, biz ekspertiza tayinlash bosqichlarini quyidagilarga bo'lsak maqsadga muvofiq bo'lar edi: 1) ish uchun ahamiyatli ma'lumotlarni fan, texnika, san'at yoki kasb sohasi bo'yicha maxsus bilimlar orqali tekshirishga ehtiyojning vujudga kelishi; 2) ekspertizaga yuboriladigan obyektlarni to'plash; 3) tayinlanadigan ekspertiza turini aniqlash; 4) ular yuboriladigan muassasa, tayinlanadigan ekspertni aniqlash; 5) ekspertiza o'tkazilishi lozim bo'lgan muddatni belgilash; 4) ekspert oldiga qo'yiladigan savollarni tayyorlash; 5) ekspertiza tayinlash to'g'risida qaror, ajrim chiqarish; 6) ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qaror va tadqiqot uchun muhim bo'lgan namunalarni ekspertga yuborish hamda uning huquq va majburiyatlari, javobgarligini tushuntirish yoki qaror va namunalarni davlat ekspertiza muassasasiga yuborish.

Ekspertiza tayinlash uchun daliliy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotni aniqlashda maxsus bilimlarga ehtiyoj sezilgani asos hisoblanadi. Mazkur ehtiyoj, o'z navbatida, ekspertiza o'tkazishning doirasini belgilaydi va tergovchining xohish-irodasini ifoda etadi.

Shuningdek, ekspertiza turining noto'g'ri tanlanishi hujjatlarning ekspertiza o'tkazilmasdan qaytarilishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, bir obyekt bo'yicha bir nechta ekspertiza turlarini qaysi ketma-ketlikda tayinlash masalasi ham alohida ahamiyatga ega. Masalan, barmoq izlari bo'yicha ham DNK, ham daktiloskopik ekspertiza o'tkazish ehtimoli mavjud bo'lib, ularni qaysi tartibda belgilash dalilning saqlanishi va tekshiruv sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ekspertiza o'tkazish muddatini oldindan belgilash dalillarni o'z vaqtida va samarali tekshirish imkonini yaratadi. Shu sababli ekspertiza muddati uni tayinlagan organ tomonidan, davlat sud-ekspertiza muassasasida o'tkaziladigan hollarda esa muassasa rahbari tomonidan aniqlanadi.

Ekspertiza tekshiruvi uchun savollar tayyorlash ekspertiza tayinlashning markaziy masalasi hisoblanadi. Ushbu savollar bir nechta taktika mezonlariga javob berishi lozim:

- savollar jinoyat ishi bilan bog'liq bo'lishi;
- ekspertiza tayinlovchi organning talab va maqsadlarini aks ettirishi;
- tadqiq qilinadigan obyektning to'liq qamrab olishi;
- sodda, aniq va tushunarli tilda ifodalanishi;
- mavjud ekspertiza turlari doirasida bo'lishi;
- xulosa berishning iloji yo'qligi haqida hujjat berilishining oldini olishi, ya'ni savol mutaxassisning o'sha sohadagi bilim va tajribasini talab qilishi.

Ekspertiza tayinlashning yuridik kuchini belgilovchi hujjat qaror va ajrim hisoblanib, Jinoyat-protsessual kodeksining 180-moddasi ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qaror yoki ajrimga bag'ishlangan bo'lib, unga ko'ra ekspertiza – surishtiruvchi, tergovchining qarori yoki sud ajrimiga asosan tayinlanadigan protsessual harakat. JPKda tergovchi yoki sudning ruxsatisiz protsess ishtirokchisi bo'lgan taraflar tomonidan ekspertiza erkin tarzda o'tkazilishi taqiqlanadi.

Ekspertiza tayinlash uchun asos qaror (ajrim) hisoblanib, daliliy ashyolar, ekspert oldiga qo'yilgan savollar, ekspert muassasasining yoki ekspertiza o'tkazishi lozim bo'lgan ekspertning nomi aks ettiriladi.

Ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qaror (ajrim) haqida JPKning 180-moddasida berilgan bo'lib, u uch – kirish, tavsif va xulosa qismlaridan iborat.

Kirish qismida qarorni qabul qilish muddati, hujjatni qabul qilgan mansabdor shaxs haqida ma'lumotlar (mansabi, ismi-sharifi), ekspertiza turi, qaror chiqarilayotgan joy, vaqt, qaysi jinoyat ishi bo'yicha ekspertiza tayinlanayotganligi bayon etiladi.



Tavsif qismida qisqacha ish holati, ekspertiza tayinlash uchun asoslar ekspertiza tayinlanayotgan jinoyat haqida qisqacha ma'lumot, dalil ahamiyatiga ega bo'lgan, tekshirilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar, ekspertiza turi, ekspertiza o'tkazilishi lozim bo'lgan ekspert yoki tashkilot haqida ma'lumotlar beriladi.

Xulosa qismida esa, ekspertiza jarayonida tadqiq etilishi lozim bo'lgan savollar, tadqiq etilishi uchun yuborilgan ashyolar birma-bir sanab chiqiladi, yolg'on xulosa berganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkinligi haqida ogohlantirilishi aks etadi.

Ta'kidlash lozimki, ekspertizani tegishli qaror yoki ajrimsiz o'tkazish taqiqlanadi. Birlamchi ekspertiza yuzasidan qo'shimcha ekspertiza o'tkazish talab qilingan qarorda: qo'shimcha ekspertiza o'tkazish talab qilingan asoslar ko'rsatilishi; aynan xulosaning to'liq emasligi yoki tushunarsizligi nimalarda aks etishi; birlamchi ekspertizaga berilgan savollarni kengaytirish sabablari keltirilgan ma'lumotlar; birlamchi ekspertizani qaysi ekspert va qanday asoslarga tayanib o'tkazganligi; birlamchi ekspertizada qanday xulosa chiqarilganligi; aynan qanday holatlar tadqiq qilinmay qolganligi kiritilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Qarordagi ma'lumotlarni to'ldirish maqsadida unga ilovalar ham qo'yilishi mumkin. Ekspertiza tayinlashga tayyorgarlik jarayonida tergovchi: tekshiruv uchun taqdim etilgan obyektlarni to'plashi, tanlash, saqlash, jo'natish uchun tayyorlashi; ekspertiza o'tkazuvchi muassasa va ekspertni tanlashi; protsessual harakatni rasmiylashtirishi (qaror (ajrim) chiqarish); ekspertiza tayin qilish to'g'risidagi ariza va iltimoslarni ko'rib chiqishi hamda hal qilishi; ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qarorni amalda bajarishi kerak.

Ekspertiza tayinlash jarayonida tergov organi (sud) tomonidan quyidagi harakatlar amalga oshirilishi talab qilinadi: faktik va yuridik asoslarni aniqlash; jinoyat ishi uchun muhim hisoblangan ma'lumotlar va yuborilgan namunalarni tadqiqot uchun tayyorlash; ekspertizani o'tkazadigan ekspertiza muassasasi yoki ekspertni tanlash (ekspert vakolat doirasi va shaxsiy imkoniyatlar va ko'nikmalarini aniqlash); JPKning 172-moddasiga muvofiq, ekspertiza tayinlash va ekspertizaga berilishi talab qilingan savollarni qaror yoki ajrimda shakllantirish; jinoyat protsessi ishtirokchilari tomonidan ekspertiza o'tkazish tartibi bo'yicha berilgan iltimosnomalarni ko'rish.

Shuningdek, qonunchilikda ekspertiza tayinlash muddati berilmagan bo'lib, mazmunan tergovchi (sudya) tomonidan mustaqil ravishda hal etiladi. Lekin ekspertiza tayinlash va o'tkazish shart bo'lgan holatlarda ekspertiza tayinlashning aniq muddatini belgilash maqsadga muvofiq. Fikrimizcha, JPKning "Ekspertiza tayinlash va o'tkazishning shartligi" deb nomlangan 173-moddasini quyidagi mazmundagi uchinchi qism bilan to'ldirish lozim: "Ekspertiza tayinlash va o'tkazish shart bo'lgan holatlarda ma'lumotlar va obyektlar to'liq bo'lgandan boshlab darrov yoki uch kun ichida ekspertiza tayinlanishi va ekspertga tadqiqot o'tkazish uchun yuborilishi shart".

Bu, o'z navbatida, jinoyat ishiga nisbatan sovuqqonlik bilan munosabatda bo'lish, tadqiqot obyektining o'z xususiyatini yo'qotishi singari salbiy holatlarning oldini olishga xizmat qiladi. Yuqoridagilar bilan bir qatorda, jinoyat-protsessual qonunchilikda ekspertiza qachon o'tkazilishi lozimligi to'g'risida, uning protsessual muddatlari haqida aniq qoidalar belgilanmagan, bu esa, o'z navbatida salbiy oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin. Bizningcha, mazkur masala ham qonuniy tartibda hal etilishi kerak. Zero ekspertiza tadqiqotining umumiy muddati dastlabki tergovning umumiy uch oylik muddatidan oshib ketadigan bo'lsa, qanday yo'l tutish lozimligi kodeksda belgilanmagan. Bizningcha, dastlabki tergovni to'xtatish asoslari va tartibi deb nomlanuvchi 364-moddaga yangi 5-band sifatida "ekspertiza o'tkazilishi shart bo'lgan holatlarda bu xulosani olish muddati tergovning umumiy

muddatidan ortib ketadigan bo'lsa" degan qoidani kiritish maqsadga muvofiq. Chunki mazkur bandning kiritilmasligi tergovchining ikki o't orasida qolishiga sabab bo'ladi: bir tomondan, jinoyat ishini to'xtatay desa, qonuniy asosi yo'q; boshqa tomondan esa, qonunga binoan ekspertiza o'tkazishga majbur, biroq uni dastlabki tergov muddatida o'tkazishga ulgura olmaydi.

Shu holatni ham inobatga olish darkorki, advokatning tergov va sudga dalil taqdim qilish huquqiga egaligi JPKda o'z aksini topgan bo'lsa-da, uning mazkur huquqidan qay tartibda foydalanishi belgilanmagan. Faqatgina advokat ekspert tomonidan himoyasidagi shaxsga nisbatan berilayotgan savollarni nazorat qilib borishi, lozim hollarda esa, ularni olib tashlash haqida iltimosnoma kiritishi lozimligi belgilangan xolos (Pardayev, 2010, pp. 131–139). Zero bu dalillarni to'plash usuli sifatida ekspertiza o'tkazishga ham bog'liq. Bizningcha, advokatga ham ekspertiza tayinlash vakolati berilishi uning dalil to'plash huquqini va sudga teng tortishuvlik qaror topishini ta'minlagan bo'lardi. Zero hozir advokat tergovchi, prokurorga ekspertiza o'tkazish to'g'risida iltimos bilan murojaat qiladigan bo'lsa, ular bu iltimosni rad etishi ham mumkin.

Advokat aynan ekspertiza tayinlanishi lozim bo'lgan holatlar yuzasidan ekspertlar uchun majburiy bo'lgan talabnoma bilan murojaat etish vakolatiga ega bo'lsa, jinoyatlarni adolatli baholash tizimi shakllangan bo'lardi. Bu holatda qonun tomonidan ekspertiza tayinlash vakolatiga ega bo'lgan subyektlar doirasini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Shunga yaqin fikrni R.S. Belkin ham ilgari surgan. Uningcha, qonunchilikda ayblanuvchi himoyachisiga o'z tashabbusi bilan yoki ayblanuvchining xohishiga ko'ra ekspertiza o'tkazish uchun tegishli ekspertga murojaat qilish huquqini mustahkamlash darkor (Belkin, 1997, pp. 117–118).

Jinoyat ishini qo'zg'atgunga qadar tayinlanadigan ekspertiza haqida A.V. Dulov: "Ekspertizani jinoyat joyida hech narsa o'zgartirilmay turib tayinlash va unga mutaxassisligi bo'yicha savollarni berish lozim. Barcha hujjatlar va dalillar shakllangandan keyin esa to'liq savollar bilan yana ekspertga murojaat qilish mumkin", – deydi (Dulov, 1957, pp. 39–40).

Jinoyat ishini qo'zg'atishdan oldin ekspertiza o'tkazishni yoki hodisa joyini ko'zdan kechirish chog'ida jinoyat sodir etilgan joyda o'tkaziladigan ekspertizaga B.M. Komarines fikricha, tergovchi oldida hal qilinishi lozim bo'lgan faqatgina alohida ashyoviy dalilgina emas, balki jinoyat sodir etilgan joy holatini ham tadqiq etish talab qilinganda; tadqiqotni samarali amalga oshirish uchun jinoyat sodir etilgan turli joydagi har xil buyumlarda qoldirilgan izlarni qiyoslash talab qilinganda; agarda jinoyat sodir etilgan joydan jinoyatchining yoki jinoyat izlarining nobud bo'lishi xavfi ostida yoki jinoyat ishining juda katta ahamiyat kasb etishi natijasida uni noto'g'ri talqin qilishlarini oldini olish yoki tegishli ekspertiza muassasasiga dalillarni olib borishda shikast yetkazish xavfi baland bo'lganda ehtiyoj seziladi (Komarintsev, 1964, pp. 21–22).

Amalda avtotexnik ekspertlar avtohalokat yuz bergan joyda shikastlangan transport vositalarini va ularning ichidagi shaxslarni joyida ekspertizadan o'tkazishga majbur bo'ladilar. Bunday holatlar sharoitning noqulayligi yoki aholining ko'pligi sababli dalil bo'lishi mumkin bo'lgan izlarning yo'qolish xavfi juda yuqori ekanligi bilan izohlanadi. Masalan, 2009-yilning 14-yanvar kuni soat 18:00 larda Jizzax tumani "Jizzax – Paxtakor" avtoyo'li 20-kilometrda haydovchi D.P. boshqaruvida bo'lgan TIKO rusumli mashina NEKSIYA va KAMAZ rusumli mashinalar bilan to'qnashib ketgan. Natijada TIKO haydovchisi va undagi 4 nafar yo'lovchi vafot etgan. Holat yuzasidan 21-3334 sonli jinoyat ishi qo'zg'atilib, ushbu hodisa qorong'i paytda sodir etilganligi va guvohlar bo'lmaganligi bois ekspertiza tayinlandi. Natijada avtohalokatga TIKO avtomashinasi haydovchisi sababchi ekanligini aniqlanib, tergov



organlari tomonidan aniq dalillar asosida qonuniy to'xtamga kelish imkoniyati paydo bo'ldi (Axmedov, 2010, p. 37).

Kezi kelganda qayd etish o'rinliki, amaliyotda garchi jinoyat ishini qo'zg'atishdan oldin ekspertiza o'tkazilishi natijasida jinoyat va uni sodir etgan shaxs haqida to'liq ma'lumotlar olingan bo'lsa-da, ekspertiza o'tkazilish shart bo'lgan holatlar yuzasidan tergov jarayonida yana qayta ekspertiza o'tkaziladigan holatlar uchraydi.

Garchi ushbu holat JPK talablariga muvofiq bo'lsa-da, jinoyat ishini qo'zg'atishdan oldin o'tkazilgan ekspertiza asosiy ish qo'zg'atilgandan keyin tayinlanayotgan ekspertiza oldiga qo'yilgan savollarga to'liq javob bergan hamda dalillar har tomonlama aniq to'plangan va tekshirilgan bo'lsa, tergov jarayonida qayta ekspertiza o'tkazishga hojat qolmaydi.

Dastlabki tergov bosqichida o'tkaziladigan ekspertizada ekspert oldiga qo'yilgan savollar ekspertning maxsus bilimlari doirasidan tashqari chiqishi mumkin emas. Mazkur maxsus bilimlarga bo'lgan ehtiyoj baland va muhim ahamiyat kasb etuvchi bir qator holatlar JPKda bayon etilgan bo'lib, uning 173-moddasida aks ettirilgan.

Ekspertiza o'tkazish uchun qaror chiqarishda ekspert oldiga qo'yilgan savollarga talablarni ikki guruhga: huquqiy va maxsusga bo'lishimiz mumkin. Huquqiy talablarga ekspert oldiga qo'yilgan savollar nafaqat tergov organiga, balki ekspertga va boshqa ishtirokchilarga ham tushunarli bo'lishi; ekspertga qo'yilgan savollar unga xos bo'lmagan ishlarni amalga oshirishga undamasligi; faqatgina tergovchi va sud vakolati doirasiga kiruvchi savollarni ekspertga bermasligi talab qilinadi.

Maxsus talablarga quyidagilarni kiritish mumkin: savollar ekspertning maxsus bilimlari doirasidan chetga chiqishi mumkin emas; savollar hal qilinishi lozim bo'lgan holatlar darajasiga mos kelishi lozim. Ekspertizaning qaysi protsessual turini qo'llashni tergovchi o'z qarorida aks ettirishi kerak bo'lib, agar u bu masalani ochiq qoldirgan bo'lsa, ekspert yoki ekspertiza muassasasining rahbari tergovchini xabardor qilishi zarur. Ekspertizaning protsessual turlari ham uning roziligi bilan tanlanadi.

Agar tergovchining o'zi tomonidan ekspertizaning kompleks yoki komissiyaviy turi tanlanishi ixtiyor qilingan bo'lsa, bu harakat o'z aksini ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qarorda aks ettirishi talab qilinadi. Shuningdek, qonunchilikda jinoyat protsessi ishtirokchilarini ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qaror bilan qachon tanishtirish lozimligi aniqlashtirib berilmagan. Lekin amaliyotda qaror chiqqandan boshlab gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchilar u bilan tanishtiriladi. Ayrim olimlar qonunchilikka gumon qilinuvchi va ayblanuvchiga uning ekspertiza borasidagi huquqlarini ekspertiza tayinlash va o'tkazish jarayonida tushuntirish talab qilinadi degan qoidani kiritishni taklif etadi (Lebedeva, 2002, p. 105). Bizningcha ham bu fikrga qo'shilish mumkin.

Amaliyotda esa ko'pincha shunday holatlar uchraydiki, ekspertiza tayinlash jarayonida ekspert tadqiqoti uchun namunalar olish kabi yana bir protsessual harakatni bajarish zarurati tug'iladi. Biroq ushbu tergov harakatini tergovga qadar tekshiruv organlari amalga oshira olmaydi, chunki mazkur harakat O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 329-moddasi 2-qismida sanab o'tilmagan va ushbu norma boshqa, ko'rsatilganlardan tashqari, tergov harakatlarini o'tkazishni taqiqlaydi. Bundan tashqari, JPKning 189-moddasida ekspertiza uchun namunalar olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar va organlar qatorida tergovga qadar tekshiruv organlari ko'rsatilmagan.

Ekspertiza tayinlash jarayonida JPKning 173-moddasi, ya'ni ekspertiza tayinlash va o'tkazish shart bo'lgan holatlar muhim hisoblanadi. Unga ko'ra, o'limning sababi, yetkazilgan tan jarohatlarining xususiyati va og'irlik darajasi tibbiy vazifa hisoblanib, sud-tibbiy

ekspertiza o'tkazish yo'li bilan aniqlanadi. Bu ekspertiza turi faqatgina odam o'ldirish, sog'liqqa shikast yetkazish jinoyatlari bilan chegaralanib qolmasdan, boshqa jinoyatlarda ham inson o'limi sababi va tan jarohati darajasini aniqlashda o'tkaziladi.

Ekspert tomonidan berilgan xulosaga huquqiy baho berish surishtiruvchi, tergovchi va sudyaning o'ziga xos huquqidir. Jinoyatning odam o'ldirishmi yoki o'zini o'zi o'ldirish hodisasi yuz berganmi, shuningdek, jinoyat og'irlashtiruvchi holatlarda sodir etilganmi degan savollarga javob berishda ular faqat ekspert xulosasiga tayangan holda emas, balki boshqa tergov harakatlari natijalarini ham hisobga olgan holda baho beradilar.

Jinsiy aloqada bo'lganlik, homiladorlik holati va homilaning sun'iy yo'l bilan tushirilgan belgilarini aniqlash sud-tibbiy va biologik ekspertizalar orqali amalga oshiriladi. Ekspertga shu masalalarni aniqlash uchun ish holatiga oid maxsus bilimlar doirasida savollar beriladi.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining yoshi aniqlanmagan, mavjud hujjatlar shubhali bo'lsa yoki ular umuman mavjud bo'lmasa, ekspertiza o'tkazish talab etiladi. Shaxsning yoshini aniqlash yuridik ahamiyatga ega bo'lib, odatda turli hujjatlarga murojaat qilinadi. Agar hujjatlar haqiqiylikiga shubha bo'lsa yoki ular mavjud bo'lmasa, tegishli ma'lumotni olish uchun muassasalarga murojaat qilinadi va zarur hollarda tintuv yoki boshqa tergov harakatlari o'tkaziladi. Agar bular natija bermasa, sud-tibbiy ekspertiza tayinlanadi.

Shuningdek, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining ruhiy va jismoniy holati, ularning jinoyat sodir etish paytida harakatlarini anglash va boshqarish qobiliyati, shuningdek, kasalliklar mavjudligi, jinoyatni sodir etish usuli va undan keyingi harakatlariga baho berish sud-psixiatriya va sud-tibbiy ekspertizalar orqali aniqlanadi.

Sud-psixiatriya eksperti oldiga, shuningdek, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining aqliy salohiyati yetarli bo'lmagan holatlarda, ular jinoyat protsessi davomida o'z huquq va qonuniy manfaatlarini mustaqil himoya qila olish qobiliyatini aniqlash masalasi ham qo'yilishi mumkin.

Jabrlanuvchi va guvohlarning ruhiy va jismoniy holati, ish uchun ahamiyatli holatlarni idrok etish, esda saqlash va so'roq chog'ida ifodalash qobiliyati ham ekspertizaga kiritiladi. Shu bilan birga, jabrlanuvchi jinoyat protsessi davomida o'z huquq va qonuniy manfaatlarini mustaqil himoya qila olish layoqati ham tekshiriladi.

Jabrlanuvchi psixikasidagi o'zgarishlar hayot davomida orttirilgan kasalliklar natijasida yuzaga kelganmi yoki jinoyat sababli paydo bo'lganmi degan masalalarga ham ekspert javob beradi. Bunday hollarda kompleks ekspertiza tashkil etilib, sud-psixiatriya va sud-tibbiy ekspertlarning birgalikdagi xulosasi shakllantiriladi. Umuman olganda, ekspertiza tayinlash va o'tkazish shart bo'lgan 9 ta holat, ijtimoiy munosabatlar rivojlanib borishi natijasida yanada kengaytirilishga muhtoj. Shu munosabat bilan ekspertiza tayinlanishi lozim bo'lgan holatlar belgilangan ushbu moddani quyidagicha yangi bandlar bilan to'ldirish lozim:

"10) so'zlashuv qurilmalari, ma'lumot saqlovchi vositalar, kompyuter texnikasi yoki zarar keltiruvchi dasturlardan foydalanib, jinoyat sodir etilganligini aniqlash talab qilinganda;

11) ekologiya sohasidagi jinoyatlar sodir etilganda ekspertiza tayinlash va o'tkazish shart."

Bevosita sud muhokamasi jarayonida ekspertiza tayinlashga to'xtalsak maqsadga muvofiq bo'lar edi. Sud muhokamasi jarayonida ekspertiza tayinlash ham muhim ahamiyat kasb etib, jinoyat ishining adolatli hal qilinishiga yordam beradi. Sud tergovida ekspertiza JPKning 172–187-moddalarida nazarda tutilgan talablarga amal qilingan holda tayinlanadi va o'tkaziladi.



Sud muhokamasi jarayonida ekspertiza taraflarning iltimosi yoki sudyaning tashabbusi bilan tayinlanishi mumkin bo'lib, unda jinoyat ishi yuzasidan ma'lum bir holatni oydinlashtirish uchun maxsus bilimga ehtiyoj sezilsa yoxud surishtiruv va tergov jarayonida tadqiqot o'tkazgan ekspert harakatlarini tekshirish va baholash zaruriyati tug'lsa amalga oshiriladi. Ushbu holatda ekspertning ishda qatnashishi uchun sudya ajrim chiqaradi (Arinushkina et al., 1975, p. 20; Bozrov & Kobayakov, 1992, p. 26).

Ekspertiza tayinlash masalasini sudya sud majlisining tayyorlov qismidan boshlab rejalashtirishi maqsadga muvofiq. Ekspertiza sud bosqichida tayinlangan bo'lsa ham ekspert tadqiqotni o'z muassasasida amalga oshiradi.

Sud tomonidan tadqiqot uchun yuborilgan obyektlarning tadqiqot o'tkazish uchun yaroqsizligi, ajrimda aks etgan savollarning tushunarsiz, noto'g'ri bayon qilinganligi bois qaytarilishini inobatga oladigan bo'lsak, sudyadan jinoyat ishi va undagi har bir hujjat bilan juda ehtiyotkorlik va sinchkovlik bilan tanishib chiqishni talab qiladi. Sud jarayonida ekspertga tadqiqot yuzasidan berilgan savollarga ekspertiza tayinlash deb qarash noto'g'ridir.

Sud muhokamasi jarayonida ekspertizaga, maxsus bilimga ega shaxsga ehtiyoj sezilganda, dastlabki tergovda amalga oshirilgan ekspertiza xulosasini tekshirish va qayta baholash maqsadida amalga oshiriladi. Sud muhokamasi bosqichida sudya ushbu masala yuzasidan quyidagilarni hal etishi lozim bo'ladi: sud muhokamasida ekspert ishtirok etayotganligini aniqlash; ekspertga uning huquq va majburiyatlarini tushuntirish; taraflarga ekspertni rad qilish huquqini tushuntirish; ekspertni yolg'on xulosa berganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortish mumkinligi haqida ogohlantirish; ekspertiza o'tkazish yuzasidan berilgan iltimosnomalarni ko'rib chiqish; ekspertni sud zalida qolish qolmaslik masalasini hal qilish.

Sud majlisida ekspertizani ilgari dastlabki tergovda xulosa bergan ekspertlar yoki sud tayinlagan yangi ekspertlar yoxud ham ilgari, ham keyin tayinlangan ekspertlar birgalikda o'tkazishi mumkin. Taraflardan birortasining iltimosi bo'yicha yoki o'z tashabbusi bilan sud ekspertiza tayinlash to'g'risida ajrim chiqaradi va uni sud majlisida o'qib eshittiradi. Ajrimda ekspertiza o'tkazish topshirilgan shaxs yoki ekspertiza muassasasi ko'rsatiladi hamda ekspert oldiga savollar qo'yiladi. Bunda sud taraflarga ularning ekspertni rad etish, taraf ko'rsatgan qo'shimcha shaxsni ekspertlar safiga kiritish, ekspert oldiga qo'shimcha savollar qo'yish, ekspertizani taraflarning ishtirokida o'tkazish to'g'risida iltimoslar qilish, shuningdek, ekspertiza davomida izoh berib borish huquqiga ega ekanliklarini tushuntiradi. Sud tergovida ekspert so'roq qilinayotgan shaxslarga savollar berishga, yozma dalillar, tergov harakatlarining bayonnomalari, boshqa ekspertlarning xulosalari bilan tanishishga, ko'zdan kechirish, eksperiment va ekspertiza predmetiga oid sudning boshqa harakatlarida ishtirok etishga haqlidir (Abdumajidov, 1986, p. 147; Inog'omjonova et al., 2008, p. 191).

Bundan tashqari, amaliyotda ekspertlar hamda tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxslari, surishtiruvchilar, tergovchilar, prokurorlar va sudyalarning o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash hamda ularning faoliyatini yagona mexanizm asosida muvofiqlashtirish maqsadida ekspertizani elektron shaklda tayinlash tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Mazkur tizimni "E-expert" portali deb atash mumkin bo'lib, u orqali ekspertiza tayinlash, shuningdek, o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida rasmiylashtirilgan xulosalarni elektron tarzda bevosita tayinlovchi organga yuborish imkoniyati yaratiladi.

Natijada hujjatlar bilan tanishish jarayoni sezilarli darajada tezlashib, elektron xulosalarni qisqa muddatda olish va ularni baholash imkoniyati vujudga keladi. Bu esa ekspertiza tayinlash jarayonining sifati va tezkorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, mazkur portal doirasida ekspertiza tayinlash vakolatiga ega bo'lgan shaxslar muayyan obyektni muayyan tashkilotda tadqiq etish mumkinligi, ushbu sohada faoliyat yurituvchi ekspertlar ro'yxati, qo'llaniladigan tadqiqot usullari hamda ayni vaziyatda qanday savollarni qo'yish maqsadga muvofiqligi yuzasidan maslahat olish imkoniyatiga ham ega bo'ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib ayta olamizki, ekspertizani tayinlash jarayoni ekspertiza o'tkazish sifatini belgilovchi muhim boshlang'ich bosqich bo'lib, uning qay darajada to'g'ri tashkil etilgani keyingi barcha ekspertiza tadqiqotlari samaradorligiga va yakuniy xulosa sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa

Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, jinoyat protsessida ekspertiza tayinlash instituti haqiqatni aniqlash, dalillarni to'plash va baholash hamda adolatli sud qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ekspertiza tayinlash nafaqat maxsus bilimlarni jalb etish vositasi, balki qat'iy protsessual tartib asosida amalga oshirilishi lozim bo'lgan mustaqil protsessual harakat hisoblanadi. Shu bois uning har bir bosqichi: asoslarni aniqlash, obyektlarni tayyorlash, savollarni shakllantirish, ekspertni tanlash va qaror qabul qilish – o'zaro uzviy bog'liq holda, qonunchilik talablariga qat'iy rioya etilgan holda amalga oshirilishi zarur.

Amaliyot tahlili ekspertiza tayinlash jarayonida qator muammolar mavjudligini ko'rsatdi. Xususan, ekspertizani asossiz tayinlash, protsessual talablarning buzilishi, savollarning noto'g'ri shakllantirilishi, ekspertiza muddatlarining aniq belgilanmaganligi hamda ayrim hollarda ekspertizaga ehtiyoj bo'lmagan vaziyatlarda ham uni tayinlash holatlari uchramoqda. Bu esa jinoyat ishlarini ko'rib chiqish muddatlarining cho'zilishiga, dalillar tizimining samarasiz shakllanishiga va davlat resurslarining noo'rin sarflanishiga olib kelmoqda.

Mazkur muammolarni bartaraf etish va ekspertiza tayinlash institutini takomillashtirish maqsadida quyidagi ilmiy asoslangan takliflar ilgari suriladi:

1. Ekspertiza tayinlash muddatlarini aniq belgilash zarur. Shu munosabat bilan Jinoyat-protsessual kodeksining 173-moddasini yangi uchinchi qism bilan to'ldirib, ekspertiza tayinlash va o'tkazish shart bo'lgan holatlarda barcha zarur materiallar to'planganidan so'ng darhol yoki uch kun ichida ekspertiza tayinlanishi va ekspertga yuborilishi majburiy qilib belgilanishi lozim.

2. Ekspertiza o'tkazish muddatlari bilan bog'liq huquqiy noaniqliklarni bartaraf etish zarur. Xususan, agar ekspertiza o'tkazish muddati dastlabki tergovning umumiy muddatidan oshib ketadigan bo'lsa, Jinoyat-protsessual kodeksining 364-moddasiga yangi asos sifatida "ekspertiza xulosasini olish muddati tergov muddatidan ortib ketgan hollarda tergovni to'xtatish" qoidasini kiritish maqsadga muvofiq.

3. Ekspertiza tayinlash vakolatiga ega subyektlar doirasini kengaytirish lozim. Jumladan, advokatga mustaqil ravishda ekspertiza tayinlash yoki ekspertga majburiy tartibda murojaat qilish vakolatini berish zarur. Bu tomonlar tengligi va tortishuv prinsipi to'liq ta'minlanishiga xizmat qiladi.

4. Ekspertiza tayinlash jarayonida protsessual huquqlarni aniq belgilash talab etiladi. Xususan, gumon qilinuvchi va ayblanuvchiga ekspertiza bilan bog'liq huquqlarini aynan tayinlash va o'tkazish jarayonida tushuntirish majburiyatini qonunchilikda mustahkamlash lozim.

5. Ekspertiza tayinlash va o'tkazish shart bo'lgan holatlar doirasini kengaytirish zarur. Xususan:



– axborot texnologiyalari, kompyuter vositalari va zararli dasturlar orqali sodir etilgan jinoyatlar bo'yicha;

– ekologiya sohasidagi jinoyatlar yuzasidan ekspertiza tayinlashni majburiy holatlar qatoriga kiritish lozim.

6. Ekspertiza uchun namunalar olish tartibini takomillashtirish zarur. Tergovga qadar tekshiruv organlariga ham tegishli protsessual harakat sifatida namunalar olish vakolatini berish masalasini qonunchilik darajasida hal etish lozim.

7. Ekspertiza tayinlashda savollarni shakllantirish sifatini oshirish zarur. Bu borada metodik tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, noto'g'ri yoki umumiy savollar berilishining oldini olishga xizmat qiladi.

8. Ekspertiza tayinlashda asoslanganlik prinsipini kuchaytirish lozim. Boshqa dalillarni to'plash orqali aniqlash mumkin bo'lgan holatlarda ekspertiza tayinlamaslik, ekspertlarni ortiqcha yuklamadan himoya qilish va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi.

9. Ekspertiza tayinlash jarayonini raqamlashtirish muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda "E-expert" elektron tizimini joriy etish taklif etiladi. Mazkur tizim orqali:


- ekspertiza tayinlash va yuborish jarayonlari avtomatlashtiriladi;
- ekspert xulosalarini tezkor elektron shaklda olish imkoniyati yaratiladi;
- ekspertlar, metodlar va tavsiya etiladigan savollar bo'yicha yagona axborot bazasi shakllantiriladi.

Xulosa qilib aytganda, ekspertiza tayinlash institutini takomillashtirish jinoyat protsessining samaradorligini oshirish, tergov va sud faoliyatining sifatini yaxshilash hamda adolatli sudlovni ta'minlashning muhim omillaridan biridir. Taklif etilgan o'zgartirish va qo'shimchalar amaliyotda mavjud muammolarni bartaraf etishga xizmat qilib, ekspertiza tayinlash jarayonining aniqligi, tezkorligi va shaffofligini ta'minlashga yordam beradi.

REFERENCES

1. Abdumajidov, G. (1986). *Investigation of crimes* (p. 147). Uzbekistan.
2. Arinushkina, G. P., Vinberg, L. I., & Shlyakhova, A. R. (1975). *Appointment and execution of criminalistic examinations* (p. 20). Yurid. Lit.
3. Axmedov, B. B. (2010). Evidentiary significance of the expert opinion. In *Materials of the Interdepartmental Scientific and Practical Conference* (p. 37). Tashkent.
4. Belkin, R. S. (1997). *A course in forensics* (Vol. 3, pp. 117–118). Norma.
5. Boltayev, H. X., Urozbayev, S. O., Bayzakov, Q. K., & Astanov, I. R. (2016). *Expertise in criminal proceedings: Content, significance, grounds for appointment and execution* (Methodological manual, p. 27). Sharq.
6. Bozrov, V. M., & Kobayakov, V. M. (1992). *Judicial investigation* (p. 26). Yekaterinburg.
7. Bychkov, V. V. (2014). Appointment of forensic examination as a right of the interrogator and investigator. *Russian Investigator*, (5), 4.
8. Dildin, Yu. M., Berdnik, P. V., & Zaytseva, E. A. (2002). The practice of the expert-criminalistic units of internal affairs bodies under the new Criminal Procedure Code of the Russian Federation. In *Materials of the 3rd Scientific and Practical Criminalistic Conference* (p. 7). MSAL.

9. Dulov, A. V. (1957). *Issues in the theory of forensic science* (pp. 39–40). Spark.
10. Inamov, R. P. (2009). *Criminalistics* (Study guide, p. 177). Farg'ona Publishing House.
11. Inog'omjonova, Z. F., Abdumajidov, G. A., To'laganova, G. Z., Xidoyatov, B. B., Allamuradov, A. T., Madaliyev, O. M., Qo'shayev, N. M., Narziyev, Y., & Shaxobiddinov, N. S. (2008). *Criminal procedure. Special part: Textbook for students of legal institutes and faculties* (Z. F. Inog'omjonova, Ed., p. 191). TSUL.
12. Komarintsev, B. M. (1964). *Theory of forensic science* (pp. 21–22). Yurid. Lit.
13. Komissarova, Ya. V. (2013). *Conceptual foundations of the expert's professional activity in criminal proceedings* (Abstract of Doctoral dissertation, p. 15). Moscow.
14. Lebedeva, V. M. (2002). *Scientific and practical commentary on the Criminal Procedure Code of the Russian Federation* (p. 105). Spark.
15. Nazarov, V. A. (2003a). *Appointment and conduct of expertise in criminal proceedings* (Abstract of PhD dissertation, p. 12). Russian State Library.
16. Nazarov, V. A. (2003b). *Appointment and conduct of expertise in criminal proceedings* (PhD dissertation, p. 14). Russian State Library.
17. Otaxo'jayev, S. A. (2006). *Procedural procedure for appointing forensic examination and evaluating the expert opinion* (Methodological manual, p. 11). Republic Forensic Science Center.
18. Pardayev, S. J. (2010). Specific features of advocate participation in criminal cases related to the appointment and conduct of expertise. In *Improving the Advocate's Relations with Forensic Institutions in a Criminal Case: Materials of the Scientific and Practical Conference* (pp. 131–139). TSUL.
19. Republic Forensic Science Center named after H. Sulaimanova under the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan. (2018). *Reports on the results of the years 2012, 2013, 2014, 2015, 2016, 2017*. Tashkent.
20. Rizhakov, A. P. (2007). *Expert in criminal proceedings: Scientific and practical guide* (p. 15). Ekzamen Publishing House.
21. Sankov, V. I. (2016). The role of forensic science in the tactical combination "Verification of testimony of a suspect (accused) confessing to a crime against the person". *Expert-Criminalist*, (2), 19.



KRIMINOLOGIYA VA JINOIY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

2026-yil 2-son

VOLUME 6 / ISSUE 2 / 2026

ISSUE DOI: [HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.CCJ.6.2](https://dx.doi.org/10.51788/TSUL.CCJ.6.2).